

## OLTIARIQ TUMANINING TUPROQLARI VA QISHLOQ HO‘JALIGI

**Uktamov Urayimjon Shavkatjonovich**

*Andijon davlat Pedagogika instituti o‘qituvchisi*

**Alijonova Yodgoroy Toirjon qizi**

*Andijon davlat Pedagogika instituti talabasi*

**Holpo‘latov Sahobidin Yusuf o‘g‘li**

*Andijon davlat Pedagogika instituti talabasi*

**Anatatsiya:** *Maqolada Oltiariq tumanining joylashgan o‘rni, tuproqlari, iqlimi va suvlari haqida keng yoritilgan. Shuningdek dehqonchilik, chorvachilik va fermer ho‘jaligi haqida bayon qilingan.*

**Kalit so‘zlar:** *Oltiariq, adirlar, iqlim, Oltiariqsoy, qishloq, dehqonchilik, uzumchilik, chorvachilik, fermer ho‘jaligi.*

## ПОЧВЫ И СЕЛЬСКОЕ ХОЗЯЙСТВО АЛТЯРЫКСКОГО РАЙОНА

**Аннотация:** *В статье подробно описаны расположение, почва, климат и воды Алтыарыкского района. Он также описывает сельское хозяйство, животноводство и земледелие.*

**Ключевые слова:** *Олтыарик, холмы, климат, Олтиариксой, село, земледелие, виноградарство, животноводство, хозяйство.*

## SOILS AND AGRICULTURE OF THE ALTYARYK DISTRICT

**Annotation:** *The article describes in detail the location, soil, climate and waters of the Altyaryk region. It also describes agriculture, animal husbandry and farming.*

**Key words:** *Oltiarik, hills, climate, Oltiariksoy, village, agriculture, viticulture, animal husbandry, economy.*

## KIRISH

Oltiariq tumani Farg‘ona viloyatining markaziy qismida joylashganligi, muhim transport yo‘llarining o‘tganligi, iqlim sharoitining qulayligi tumanda ishlab chiqarish, dehqonchilik va tadbirkorlik, madaniy-maishiy sohalari va savdo-iqtisodiy munosabatlarining rivojlanishiga muhim omil bo‘lmoqda. Oltiariq bugun tillorang va mazasi tilni yoradigan uzumlari bilan butun dunyoga ma‘lumu mashhur bo‘lmoqda. Bunda Davlatimiz rahbari tomonidan tomorqachilarga yaratilayotgan qulay sharoitlar bosh omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Endilikda ushbu tuman tajribasi yurtimiz bo‘ylab ommalashadi va ushbu soha yana taraqqiy etadi.

## ASOSIY QISM

Oltiariq tuman hududining janubiy qismida adirlar, soylarning yoyilmalari, qumli sho'rxoklar mavjud. Adirlar va adir etaklarining balandligi 500 – 700 m. Bu yerlar tog'lardan oqib tushadigan ko'p soylarning qadimiy konglomeratlaridan — So'x svitasi komplekslaridan tarkib topgan. Qalinligi 80–200 m atrofida.

Adirlarning Markaziy Farg'ona tekisliklariga qo'shilib ketgan qanotlari yoyilma ko'rinishida bo'lib, toshli-shag'alli, gilli va qumoq jinlardan iborat. Ularning hammasi antropogen davrining turli yoshdagi yotqiziqlaridir. Shimoliy qismining relyefi keng tekislik bo'lib, yuzasini qum, gil, o'nlab metr chuqurlikda toshli-shag'alli jinslar qoplab yotadi. Ularning tagida 400 m qalinlikda paleogen davrining karbonatli dengiz cho'kindilari bor. Adir va adir etaklarida och bo'z, to'q bo'z, qo'ng'ir bo'z, markaziy va shimoliy qismida o'tloqi, o'tloqi-botqoq sho'rxok tuproqlar tarqalgan[1].

Iqlimi quruq va sershamol. Bahor va kuz oylarida shamol bo'lib, tezligi sekundiga 12–15 m ni tashkil etadi. Qish yumshoq, ba'zan esa qattiq kechadi. Qor qoplanishi barqaror emas, ba'zi qish kunlarida issiq harorat kuzatiladi, yozi esa issiq. Yillik o'rtacha temperatura 18°C, iyulda 31<sup>o</sup>— 40°C, eng yuqori temperatura 55°C, yanvarda o'rtacha temperatura —2°C, eng past temperatura —23°C. Vegetatsiya davri 210 kun, yillik yog'in 100–180 mm. Bahorda shamollar ba'zan tuproqning sirt qatlamlarini quritib, yosh paxta va boshqa o'simliklarning ildiz tizimini ochib beradi. Bu yerda shamol kuchi soniyasida 30-35 m gacha yetishi mumkin.

Suvlari: Tumanning ekin maydonlari Oltiariqsoy, Janubiy Farg'ona, Katta Farg'ona, Katta Andijon, So'x-Shohimardon kanallaridan suv oladi. „Qo'rg'ontepa“, „Keng ko'l“ suv omborlari qurilgan. Cho'l qismida yirik mineral suv havzasi bor. Daryolar ko'p suvli, sug'orish uchun qulay drenaj usullari mavjud. Maksimal suv xarajatlari yoz oylariga to'g'ri keladi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 1963,9 mlrd. so'mni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 105,5 % ni tashkil qildi. Viloyat qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarkibida Oltiariq tumanini ulushi 8,1 % ni tashkil etdi. Xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlillar, qishlok xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 66,2 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 32,8 % i fermer xo'jaliklariga, 1,0 % i qishloq xo'jaligini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i — dehqonchilik. Tumandagi 24 ming ga sug'oriladigan yer maydonidan 20,6 ming ga yerga ekin ekiladi. Oltiariq tumanida 15 shirkat xo'jaligi, Qiziltepa fermerlar birlashmasi, tuman fermerlar uyushmasi tomonidan 7895 ga yerga paxta, 8520 ga yerga don ekinlari ekiladi (2002). 534 ga o'rmonzor, 1530 ga ko'p yillik daraxtzor, shundan 1250 ga bog', 21 ga tokzor, 250 ga tutzor bilan band[2].

2022-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 1300,2 mlrd. soʻmni yoki 2021-yilning shu davriga nisbatan 106,1 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 66,2 % ni tashkil qildi.

Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishda dehqon xoʻjaliklarining salmogʻi yuqori boʻlmoqda, jumladan jami etishtirilgan kartoshkaning 65,8 % i, sabzavotning 71,3 % i, uzumning 90,4 % i va mevaning 45,0 % i ular hissasiga toʻgʻri keldi. 2022-yilning yanvar-sentabr oylari davomida Oltiariq tumanida 94510,3 tonna savzavot yetishtirilgan boʻlib, Fargʻona viloyatida yetishtirilgan savzavot hajmidagi ulushi 11,5 % ni tashkil etdi. Yetishtirilgan savzavot hajmining 71,3 % i dehqon va shaxsiy yordamchi xoʻjaliklari xissasiga toʻgʻri keladi.

Chorvachilik. Kelgusida chorvachilik sohasining imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning izchillik bilan amalga oshirilishi hamda davlat tomonidan koʻrsatilayotgan tizimli qoʻllab-quvvatlashlar natijasida qoramollar bosh sonining oʻsishiga, ichki isteʼmol bozorlarining chorvachilik mahsulotlari bilan toʻyinishiga imkon yaratdi. 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 649,1 mlrd. soʻmni yoki 2021- yilning shu davriga nisbatan 103,9 % ni tashkil qildi.

Ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 33,1 % ni tashkil etdi. 2022-yilning 1-oktabr holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni 74 868 boshga (102,5 %ni), shu jumladan sigirlar 36 587 boshga (100,6 %ni), qoʻy va echkilar 47 469 boshga (101,5 %ni), parrandalar 265 703 boshga (100,2 %ni) tashkil qildi. Umumiy bosh songa nisbatan dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklarida yirik shoxli qoramollarning ulushi 89,9 % ni, fermer xoʻjaliklarida 9,6 % ni, qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida 0,5 % ni tashkil etdi[3].

1-jadval

Xoʻjalik toifalarining chorva mollari va parrandalar bosh sonidagi ulushi, % hisobida

Qishloq xoʻjaligi	Qora mollar	Qoʻylar	Parranda
Fermerxoʻjaliklari	9,6 %	9,9 %	6,7 %
Dehqon (shaxsiy yordamchi)xoʻjaliklari	89,9 %	88,9 %	85,0 %
Qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,5 %	1,2 %	8,3 %

Fermer xoʻjaliklari. 2022-yilning yanvar-sentabr oylari davomida fermer xoʻjaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlari hajmi 525,3 mlrd. soʻmni tashkil qilib, qishloq xoʻjaligi mahsulotlari umumiy hajmida fermer xoʻjaliklarining ulushi 26,7 % ga yetdi. 2022-yilning 1-oktabr holatiga fermer xoʻjaliklarida 7 202 bosh yirik shoxli qoramol, shu jumladan 2 615 bosh sigir, 4 685 bosh qoʻy va echkilar, 175 bosh ot, 17 794 bosh parrandalar mavjud. Oltiariq

tumanida faoliyat yuritayotgan barcha yo'nalishdagi fermer xo'jaliklari 1-oktabr holatiga soni 844 tani tashkil etadi. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, Oltiariq tumanida 2022-yilning 1-oktabr holatiga doimiy aholi soni 222 336 kishini tashkil qildi va yil boshidan 3 257 kishiga yoki 1,5 % ga ko'paydi[4].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va davlat xaridlari tizimini takomillashtirish masalalari muhokama qilinar ekan, budget mablag'larining asosiy qismini yerlarning unumdorligini oshirish, suv tejavchi texnologiyalarni joriy qilish, ilm-fanni rivojlantirishga sarflash lozimligi ko'rsatib o'tish mumkin. Sohaning eksport salohiyatini oshirish va qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish masalalariga ahamiyat berish, bu boradagi jahon tajribasi tahlil qilish ham maqsadga muvofiq hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. © 2008-2023 «Gazeta.uz».
3. Oltiariq tumanining statistik axborotnomasi. 2002-yil yanvar-setabr.
4. Oltiariq tumani Mehnat resurslari balansi 2022-yil yanvar-sentabr balansi.